

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUVNING NAZARIY VA  
USLUBIY ASOSLARI****Ashurova Zilolaxon Baxodir qizi****GDPI magistranti****zilolaashurova079@gmail.com****+998889090074****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17531359>**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy yondashuvning nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integratsiya jarayoni tahlil qilinib fanlararo bog'liqlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarga asoslanib, integratsiyaviy yondashuvning amaliyotdagi qo'llanilishiga oid misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich ta'lim, fanlararo bog'liqlik, integratsiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, STEAM-ta'lim, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** В диссертации рассматриваются теоретические и методические основы комплексного подхода в начальном образовании. Анализируется процесс интеграции на основе современных педагогических технологий и излагаются научные взгляды на обеспечение межпредметных связей. Также приведены примеры практического применения интегративного подхода, основанные на зарубежных и отечественных исследованиях.

**Ключевые слова.** Начальное образование, межпредметные связи, интеграция, интерактивные методы, педагогические технологии, STEAM-образование, эффективность образования.

**Annotation.** This thesis covers the theoretical and methodological foundations of the integrative approach in primary education. The integration process is analyzed on the basis of modern pedagogical technologies and scientific views on ensuring interdisciplinary connections are presented. Also, examples of the practical application of the integrative approach are given based on foreign and domestic research.

**Keywords.** Primary education, interdisciplinary connections, integration, interactive methods, pedagogical technologies, STEAM-education, educational effectiveness.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentning ta'lim sohasidagi qaror va farmonlarida ta'lim sifatinni oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va fanlararo integratsiyani rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [2,95].

Jumladan, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish strategiyasi" da integratsiyaviy ta'limning dolzarbligi ta'kidlangan [1,112].

Zamonaviy ta'lim jarayonida integratsiyaviy yondashuv o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil tafakkur qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va bilimlarning amaliy qo'llanilishini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi [4,56].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan taqdirda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi oshadi, ularda analitik tafakkur shakllanadi [6,51].

Ushbu tezisda integratsiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, metodologik yo'nalishlari hamda amaliy qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi.

**Integratsion yondashuvning nazariy asoslari.** Integratsiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlarni yagona tizim sifatida uyg'unlashtirishni anglatadi. J.Bruner ta'lim jarayonida integratsiyalashgan metodlardan foydalanish o'quvchilarning izlanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydi[3,112].

L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'quv jarayonida fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega[11,89]. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar ham integratsiyaviy yondashuvning pedagogik-psixologik jihatlariga e'tibor qaratmoqdalar[9,78].

Integratsiya ta'lim tizimining kompleks o'zgarishlarini ta'minlaydi va o'quvchilarga ilmiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, fanlararo aloqalar orqali yangi bilimlarni yaratishning asosiy omili sifatida integratsiya tan olingan[10,98].

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdur. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan[8,26].

Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan[8,27]

**Boshlang'ich ta'limda integratsiyaning uslubiy asoslari.** Boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshirishda quyidagi tamoyillar muhim o'rin tutadi:

1. Mazmuniy integratsiya – fanlarni umumiy mavzular asosida bog'lash[4,134].
2. Faoliyat orqali integratsiya – interfaol o'yinlar, loyiha metodlari orqali o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash[5,67].
3. Texnologik integratsiya – zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, STEAM-ta'lim elementlarini qo'llash[6,83].

Integratsiya o'quv jarayonida bilimlar o'rtasida bog'lanishlarni yaratadi va o'quvchilarni yanada kengroq nuqtai nazarga ega bo'lishga o'rgatadi[7,140].

Shu o'rinda "integratsiya" tushunchasiga qisqacha to'xtalsak. Integratsiya (lotincha "integration" – tiklash, to'ldirish, birlashtirish) – bu o'quv jarayonida turli fanlar, bilim sohasi,

faoliyat turlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash orqali yaxlit ta'lim tizimini shakllantirishdir[12,115].

Boshlang'ich ta'limda integratsiyaning asosiy maqsadi:

- o'quvchilarda hayotiy va amaliy bilimlarni shakllantirish;
- mavzularni bir-biri bilan bog'lab, yaxlit tasavvur hosil qilish;
- o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish[13,102].

Integratsiyaning ichki va tashqi turlari mavjud. Ichki integratsiya – bitta fan doirasida mavzular o'rtasidagi bog'liqlik. Tashqi integratsiya – bir necha fanlarni o'zaro bog'liq holda o'qitish.

Bugungi kunda integratsiyalashgan darslarning bir qancha turlari mavjud. Xususan, tematik dars, loyiha asosidagi dars, muammoli dars, yaxlit dars kabilar shular jumlasidandir[12,117].

**Integratsiyaviy yondashuvning amaliyotda qo'llanilishi.** Integratsiyaviy yondashuvni amaliyotda qo'llash natijasida o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi oshadi, ularning ijodiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan bir qatorra, o'quvchilar bilimlarini real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar[6,94].

Integratsiya nafaqat bilimlarni o'zaro bog'lash, balki o'quvchilarda ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi[5,81].

**Xulosa.** Integratsiyaviy yondashuv boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim jarayonida integratsiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish eng muhim va dolzarb vazifalardan biri ekanligi, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, turli interfaol metodlar yordamida tashkil etish ijobiy natijalarga erishish kaliti ekanligi o'z isbotini topib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiya asosida ta'lim berish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, bilimlarni hayotiy faoliyatgatatbiq etishga yordam beradi. Shu sababli, kelgusida ushbu yondashuv asosida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zarur.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sh.Mirziyoyev- "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish strategiyasi". Toshkent: Prezident matbuot xizmati. 2019, 112 b.
2. Prezident qarori. "Ta'limni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish to'g'risida" Toshkent. Hukumat nashriyoti. 2022, 95 b.
3. Bruner J. Toward a Theory of Instruction. Cambridge, MA: Harvard University Press. 234 b.
4. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. Toshkent.:O'qituvchi. 2005, 278 b.
5. Saidaxmedov N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent.:Fan. 2021, 215 b.
6. Karimova D. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy yondashuv yondashuv. Toshkent.:Ilm Ziyo. 2022, 198 b.
7. Xodjayev A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning qo'llanilishi. Toshkent.:Ma'rifat. 2012, 189 b.
8. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O'quv qo'llanma.T.:ILM ZIYO, 2009. 192 b.
9. Usmanova Sh. Fanlararo bog'liqlik orqali boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish.

Pedagogika ilmiy jurnali, 2-son, 145-160-bet.

10. Dewey J. Democracy and Education. New York:Macmillan.1916,356 b.
11. Vigotskiy L.S. Mind in Society:The development of higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978, 287 b.
12. To'xtasinov N. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent.:O'zbekiston. 2018, 356 b.
13. Nematova M. Boshlang'ich ta'lim fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent.:Fan va texnologiya. 2020, 300 b.